

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

KELISHILGAN

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti kasaba uyushmasi



lumayev

TASDIQLAYMAN

Muhammad al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti

moliya-iqtisod ishlari

bo'yicha prorektor

S. Toshmatov



Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida
mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risida

NIZOM

Toshkent

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida
mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risida**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-iyuldagi 454-son bilan qabul qilingan "Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq ishlab chiqilgan va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (keyingi o'rinlarda-Universitet)da mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini rejalashtirish, uning faoliyat ko'rsatishini tashkil etish, ichki auditni o'tkazish va takomillashtirish tartibini belgilaydi.

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining maqsadi Universitetda mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi talablarini samarali bajarish, xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarishdan iborat.

2. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ichki audit — Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini aniqlash jarayoni;

kasbga oid (kasbiy) xavf-xatar — zararli va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'siri natijasida xodimning sog'lig'i shikastlanishi yoki mehnat qobiliyati yo'qotilishi yoki vafot etishi ehtimoli;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi (keyingi o'rinlarda — tizimi) — mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi siyosati va maqsadlarini belgilovchi, o'zaro bog'liq va bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi elementlar kompleksi hamda ushbu maqsadlarga erishish tartibi;

mehnat xavfsizligi va gigiyenasi — xodimlar uchun xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri istisno qilinadigan mehnat sharoitlari holati hamda ularning inson salomatligi va funksional holatiga ta'sirining profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi;

mehnat sharoitlari — mehnat faoliyatini amalga oshirish chog'idagi ijtimoiy va ishlab chiqarish omillari yig'indisi.

2-bob. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini rejalashtirish, uning faoliyat ko'rsatishini tashkil etish, ichki auditdan o'tkazish hamda Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish tartibi

1-§. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini rejalashtirish

4. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini rejalashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

funksiya va vakolatlarni Universitetning mas'ul tarkibiy birliklar rahbarlari o'rtasida taqsimlash;

Universitetning mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida siyosatini ishlab chiqish;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini tashkil etish uchun mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi xarajatlarni moliyalashtirish;

xodimlarni ish joyida kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlar va mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilishni belgilash;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi faoliyati samaradorligini nazorat qilish;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi nizom va Universitetning mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi siyosatini takomillashtirib borish.

5. Universitet o'zining maqsad, vazifalari va yo'nalishlari asosida mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi siyosatini ishlab chiqishi, bunda kasbiy tavakkalchiliklarning mavjudligini hisobga olishi lozim.

2-§. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining faoliyat ko'rsatishini tashkil etish

6. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining faoliyat ko'rsatishi quyidagilardan iborat:

mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha xodimlarni tayyorlash;

ishlarni xavfsiz olib borish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish;

ish o'rinlarini mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazish;

xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarish;

xodimlarning salomatligi holatini nazorat qilish;

xodimlarni shaxsiy va (yoki) jamoaviy himoya vositalari bilan ta'minlash;

noqulay mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar va kompensatsiyalar berish;

ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish;

baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish;

kasb kasalliklarining oldini olish;

puqratchi tashkilotlar tomonidan ishlarning bexatar bajarilishi ustidan nazorat qilish.

7. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi doirasida xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tashkil etiladi. Bu tadbir ushbu nizom ilovasiga muvofiq xavfni identifikatsiya qilish, kasbga oid (kasbiy) xavf-xatarlarni baholash va boshqarish tartibi asosida amalga oshiradi.

8. Puqratchi tashkilotlar tomonidan Universitetga tegishli bino va inshotlarda qurilish va ta'mirlash ishlarini mehnat xavfsizligi va gigiyenasi talablariga muvofiq bexatar bajarilishini ta'minlash maqsadida tomonlarning huquq va majburiyatlari belgilanadi.

3-§. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini ichki auditdan o'tkazish

9. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ichki auditdan o'tkazish Universitet rektorining qaroriga binoan mehnatni muhofaza qilish xizmati (muhandis) tomonidan amalga oshiriladi va qudagilarni o'z ichiga oladi:

Universiteda Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini o'rganish;

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining ishlashi sifatini, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olishga, ish jarayonidagi xavf mavjudligi darajasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarishdagi jarohatlanishlar va kasb kasalliklarining oldini olish bo'yicha takliflar hamda xulosalar ishlab chiqish.

10. Universitetda ichki audit bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

4-§. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimini takomillashtirish

11. Universitetda Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi ichki audit natijasida aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar asosida takomillashtiriladi.

Aniqlangan nomuvofiqliklar yuzasidan ogohlantirish xabarnomasi rasmiylashtiriladi va tegishli tarkibiy bo'linmalariga yuboriladi.

Aniqlangan nomuvofiqliklarning sabablarini bartaraf etish uchun ularning qayta yuzaga kelishi oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va tegishli ishlar amalga oshiriladi.

12. Ogohlantirish xabarnomasi va chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi qoidalariga va (yoki) Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi talablariga rioya etilmaslik sabablarini aniqlash va tahlil qilish;

ogohlantirish xabarnomasi va chora-tadbirlar belgilash tashabbusi bilan chiqish. rejalashtirish, amalga oshirish, samaradorligini tekshirish va hujjatlashtirish:

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish.

13. Nomuvofiqlik aniqlanganda uning sabablari va ahamiyatiga qarab quyidagi ogohlantirish va chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

ishlab chiqarish jarayonini to'xtatish;

qurilma yoki uskunalardan foydalanishni taqiqlash;

xodimlarni ishdan chetlashtirish hamda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha navbatdan tashqari yo'l-yo'riq berish, o'qitish va bilimlarini tekshirish:

tegishli malakaga va ish tajribaga ega bo'lgan xodimlarni ishga qabul qilish; xodimlarga mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha yo'l-yo'riq berish, o'qitish, bilimlarini tekshirish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini ko'rib chiqish;

nomuvofiqlikni bartaraf etish bo'yicha texnik tadbirlar amalga oshirish (ta'mirlash, texnik xizmat kursatish):

mavjud texnologik jarayonlarni o'zgartirish;

favqulodda va avariya holatida manfaatdor tomonlarni xabardor qilish;

favqulodda va avariya holatlarini bartaraf etish choralarini ko'rish;

yetkazib beruvchilar va pudratchi tashkilotlarga nisbatan faoliyatni qayta ko'rib chiqish;

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi to'g'risidagi nizomni hamda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha siyosatini qayta ko'rib chiqish.

14. Ogohlantirish xabarnomasi va chora-tadbirlar rejalarini amalga oshirish, shuningdek, nomuvofiqliklarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash mehnat xavfsizligi va gigiyenasini ta'minlashga mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Ogohlantirish xabarnomasi va chora-tadbirlar rejalarining natijadorligi va samaradorligi Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi ichki auditori jarayonida samaradorlikni baholash natijalariga ko'ra aniqlanadi.

15. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda va avariya holatlari, baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari va zaharlanishlarning oldini olish usullarini ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni, foydalanilayotgan xomashyo hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning hususiyatlarini, iqlim, seysmik va boshqa tabiiy jarayonlarni tahlil qilish hamda kasbiy xavflarni baholash natijalari, ilgari sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar, favqulodda hamda avariya holatlarida aniqlangan nomuvofiqliklar asosida ishlab chiqiladi.

16. Universitet rahbariyati mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha universitet siyosati va maqsadlari Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimiga muvofiqligini doimiy ravishda tahlilini amalga oshiradi.

Tahlil quyidagi harakatlarni o'z ichiga oladi:

ichki audit natijalari bo'yicha xulosalar va nazorat qiluvchi organlarning ko'rsatmalarini ko'rib chiqish;

mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bilan bog'liq dolzarb masalalarni yig'ilishlarda muhokama qilish.

17. Universitetda mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi holatini sifatli tahlil qilish, kasbiy xavflarni identifikatsiyalash, baholash va boshqarish, shuningdek, ogohlantirish xabarnomasi va chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha hujjatlar mehnatni muhofaza qilish xizmati (muhandis) tomonidan yuritiladi.

Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi bo'yicha hujjatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tashkiliy-farmoyish beruvchi va belgilovchi tushqar hujjatlar (buyruqlar, nizomlar, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalar, tartiblar, reglamentlar, dasturlar, rejalar, ro'yxatlar, normalar va standartlar);

Universitetning iqtisodiy faoliyat turiga muvofiq mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar:

qayd etish hususiyatiga ega hujjatlar (dalolatnomalar va bayonnomalar, ruhsat berish naryadlari, farmoyishlar, baxtsiz hodisalarni tekshirish bo'yicha materiallar, ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish va kasbiy tavakkalchiliklarni baholash hujjatlari);

axborot tushqar hujjatlar (statistik hisobotlar, mansabdor shaxslar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv dalolatnomalari, yozma ko'rsatmalar, taqdimnomalar, xulosalar);

hisobot hujjatlari (xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish dalolatnomalari, xodimlar salomatligi holati to'g'risidagi ma'lumotlar hisobi, ishlab chiqarish uskunalarini sinovdan o'tkazish dalolatnomalari, Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi faoliyatini joriy nazorat qilish va tahlil qilish natijalari, rasmiy statistika hisoboti shakllari).

Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimi hujjatlari doimiy ravishda yangilab boriladi va besh yil davomida saqlanadi hamda ish beruvchining mehnatni muhofaza qilish, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasidagi hujjatlari qabul qilingandan keyin o'n ish kuni mobaynida tegishli xodimlarga tanishtiriladi.

18. Mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimining samarali faoliyat yuritishi Universitetda mehnat xavfsizligi va gigiyenasi holati to'g'risidagi ishonchli statistik hisobotlarni sifatli yuritish va o'z vaqtida taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Statistik hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

noqulay mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlar soni tug'risidagi yillik hisobot;

mehnat faoliyati bilan bog'lik baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari to'g'risidagi hisobot.

Universitet rektori davlat organlariga ularning yozma so'roviga asosan, Universitetning mehnat sharoitlari, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi holati to'g'risida ma'lumot taqdim etadi.

3-bob. Yakunlovchi qoida

19. Ushbu nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

